

Vaqtning bahosi

Vaqt-bu eng qadrli, ketsa hech ortga qaytmaydigan shamoldek. Bolalik vaqtlarimiz qani edi tezroq katta bo‘lib men ham o‘qishga o‘qisam, oila qurib ishlasam derdim. Hozir esa buni teskarisi, vaqt juda tez ko‘zimiz yumib ochgunimizcha o‘tib ketadi. Bu vaqt mobaynida biz ulgurib bitirib olgan ishlarning ba‘zilari bo‘ladi, ba‘zilari tugatilmasdan qoladi.

O‘n yosh edim, bolalik vaqtim juda ham sho‘x-shodon edim. Dadajonimning eng qadrli erka qizaloqlari edim. Bir kuni maktabimizda qo‘shni sinfdan bir bola kelib sochlarimni tortib, meni ustimdan kula boshladi. Shu vaqtda men uyga xafa holda bordim, dadajonim meni ko‘rib, oldilariga o‘tirg‘izib shunday dedilar – “sen ulardan xafa bo‘lma, ular senga buni rostdan seni xafa qilish uchun emas, balki sen bilan hazil-huzul qilishgan”. Shu-shu bolalar yoki biron kim menga hazil qilishsa, men ularga qarab tabassum qilib qo‘yaman....

Qaniydi, bolaligimga qaytib o‘sha sho‘x-shodon dadasini erka qizi bo‘lib yursam, vaqt shamoldek uchmoqda. Bir paytlar dadasini erka qizi bo‘lgan Mahliyo hozir qizchali bo‘lib, o‘sha qizchasi Yasinabonu bobosini erka nevarasi.

Vaqt o‘tmoqda bizlar ham kecha bolalikda o‘ynab yurgan qizaloq edik. Har bir soniyani, daqiqani o‘z vaqtida qadriga yetib uni unumli, foydaliroq o‘tkazishimiz kerak. Ortga qaraganda hech qachon o‘sha vaqtga afsuslanib qarashimiz kerak emas. Aytishadiku har narsani o‘z vaqtida bo‘lgani yaxshi deb.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak vaqtning hech qachon befoyda o‘tkazmasligimiz kerak. Har bir kunimizni vaqtning to‘g‘ri taqsimlab uni kun davomida rejalashtirib olishimiz zarur. Shunda hech qachon vaqtimiz behuda samarasiz ketmaydi.

Xoliyorova Sh.